Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня A2	1204
Сагиндилов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачеева Гульчехра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	
Malaka oshirish jarayonida ta’lim sifatini oshirish masalalari.....	1223
Amanova Durdona Kaxramonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari	1226
Berdiyeva Muhabbat Meliyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozish ko‘nikmalarini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishda modellashtirishning ahamiyati	1229
Eshbekova Gulbahor	

STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	1233
<i>G'afforova Xurriyat Yangiboyevna</i>	
Kimyo fani o'rganuvchilari ongida moddalarning hosil bo'lish jarayonining mazmun-mohiyatini ularning genetikasiga asoslab tushuntirish.....	1238
<i>Jabbarova Dilafruz Bo'riyevna</i>	
Application of Artificial Intelligence-Based Learning Activities for Developing Critical Thinking in Teacher Training	1242
<i>Masharipova Nargiza Otakhonovna, Xudayberganova Madinabonu Qudratovna</i>	
Yuqori malakali darvozabonlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati	1246
<i>Maxmudov Azamjon Muxtorovich</i>	
Multimediali elektron vositalar asosida axborot texnologiyalari fanini o'qitishda STEAM ta'lim metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1250
<i>Patidinova Dildoraxon Salimjon qizi, Yo'ldiyor Shaxriyor Xusanovich</i>	
Ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilishga qiziqtirish	1254
<i>Piriyazova Sholpan Oteniyazovna</i>	
Texnologiya fani o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirish metodikasi	1259
<i>Raxmatov A'zam Ashur o'g'li</i>	
O'quvchilarning shaxsiy karyerasini rejalashtirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	1262
<i>Raxmatova Sevara Abdulloyevna, Sharapova Hilola Dusham qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion va kreativ faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachi pedagogik mahoratining o'rni	1268
<i>Sattorova Maftuna Abdug'affor qizi</i>	
Interactive Methods and Activities in Teaching Foreign Languages	1272
<i>Sayfutdinova Nilufarxon Soyibjonovna</i>	
Nutq o'stirishda yozma ishlardan foydalanishga oid pedagogik shart-sharoitlar	1276
<i>Sharipova Sarvinaz Sayid qizi</i>	
Talabalarda integrativ yondashuv asosida muloqot madaniyatini rivojlantirishning afzalliklari.....	1280
<i>Usmonova Mohizoda Avazjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlanishda oilaning ijtimoiy faoliyati	1283
<i>Xomidova Dilorom Abduraxmonovna</i>	
Tarbiya jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish metodikasi.....	1286
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz Egamqulovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish samaradorligi	1289
<i>Yuldasheva Xusnidaxon Jumanazar qizi</i>	
Идейно-художественные особенности публицистики Ш. Рашидова и их влияние на формирование диалога культур Узбекистана и России	1293
<i>Суярова Айнура Ибодуллоевна</i>	
Axborot texnologiyalari fanida talabalarining bilish mustaqilligini rivojlantirishda foydalaniladigan tamoyillar tavsifi.....	1296
<i>Kilichev Nurulla Abbosovich</i>	
Bolaning nutqiy rivojida oilaviy va ta'lim muhitining ahamiyati.....	1300
<i>Toshmurodova Xalima Allaberdiyevna</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	1303
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Zamonaviy o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar va nutqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari.....	1308
<i>G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna</i>	
Формирование профессиональной компетентности будущих воспитателей дошкольных организаций на основе технологии "Сиббордин": педагогические условия.....	1310
<i>Нумонжонova Фарангиз Комиловна</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda tarbiyachining roli	1314
<i>Choriyeva Xurmo Panji qizi</i>	
Ona tili ta'limida o'quvchilarni loyiha ishi asosida baholash metodikasi	1316
<i>Bobodo'stov Yusuf Oydin o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini CALP yondashuvi asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishning metodik bosqichlari	1321
<i>Ahmadjonova Mushtariy Bahodirjon qizi</i>	
Shifokorlar professional karerasi resurslari va ularning obyektiv ko'rsatkichlari.....	1325
<i>Arziqulov O'tkirbek Maxammatovich</i>	



Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda disgrafiyaning o'rganish va koreksiya qilish	1329
Azimova Aziza Baxtiyorovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirish asosida mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyalari	1333
Mirzayeva Dilafruz	
Maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlilini olib borishda tarbiyachilar kompetentligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari	1337
Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi qonuniyatlari	1342
Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li	
Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy faoliyatning sog'liq va rivojlanishga ta'siri	1346
Ibragimov Xasanboy Abdusalomovich	
Kimyo darslarida raqamli resurslardan (simulyator va virtual laboratoriya) foydalanish metodikasi	1349
Ishmanova Zohida Ubaydullayevna, Valeeva Nailya Gennadiyevna	
The Integration of Web Technologies in Language Education	1353
Kadirova Feruza Hikmatullayevna	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining yangi avlod darsliklaridan foydalanish kompetensiyasi	1357
Kosimova Gulloila Mullajonovna	
Evaluation of the Knowledge of a Future Education Teacher on the Methodology of Teaching and the General Features of The Theory of Education	1360
Nishonova Munira Yakubjonovna	
Zamonaviy jismoniy tarbiya sohasining muhim jihatlari va asosiy elementlari	1364
Mamirova Dilorom Tavakulovna	
Inklyuziv ta'lim tuzilishi ijtimoiy fenomen sifatida	1367
Meliboyev Tavakkal Turg'unovich	
Yangi O'zbekistonda maktab ta'limi va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari	1371
Mexmonov Ismat Toshpo'latovich	
Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativ rivojlanishi	1375
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy immunitet va milliy o'zlikni shakllantirishning zamonaviy pedagogik asoslari	1379
Mo'minov Durbek No'monovich	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan psixokorreksion ishlarni tashkil etishda maxsus terapiyalardan samarali foydalanish yo'llari	1383
Niyozova Husnida Obidjon qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna	
Redefining the Teacher's Role in the Age of Artificial Intelligence: Balancing Human and Machine Intelligence in ELT	1386
Nizomov Feruz Raxmon o'g'li	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlashda didaktik o'yinlardan foydalanish	1389
Nurmonova Zebo Fattaxovna	
Bolalar, o'smirlar, o'spirinlarga kutubxona – axborot xizmati ko'rsatish	1392
O'ktam Nosirov	
Maktabgacha yoshdagi sensor alaliyali bolalarni eshituv nutqiy idrokini o'stirish texnologiyalari	1398
O'zganova Dildora Xolmirza qizi, Mamatkulova Lobar Tolibjonovna	
Bolalar uchun tushunarli tilda yozilgan qiziqarli tarixiy hikoyalar, afsonalar va rivoyatlar ularning tasavvurini rivojlantirishda, shuningdek rasmlar va fotosuratlar haqida ma'lumot berishda muhim ahamiyatga ega	1402
Qodirova Buzulayho Turg'unovna	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidchilarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirishning didaktik ta'minoti	1405
Quldashev Murodjon G'aniyevich	
Ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish etikasi va tamoyillari	1409
Raximbayeva Feruza Rustamjon qizi	
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbariga qo'yiladigan zamonaviy talablar	1412
Saytbekova Svetlana Saylaubayevna, Kuandikova Kamila	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning axborot almashuv va xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish metodikasi (kompyuter injiniringi yo'nalishi misolida)	1416
Solijanov Muxammad-Ali Omonillo o'g'li	

Bo'lajak ofitserlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati (ingliz tili mashg'ulotlari misolida).....	1419
<i>Sotkulova Dildora Odinabekovna</i>	
Ingliz va o'zbek tillarida zoonimik xususiyatni ifodalovchi maqollarning lingvokulturologik xususiyati	1423
<i>Shaxlo Xalilova, Sug'diyona Sherqulova</i>	
Ona tili darslarida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish	1427
<i>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Jabborova Farida</i>	
Mustaqillik davrida qizlar tarbiyasining pedagogik asoslari va zamonaviy tendensiyalar	1430
<i>Xakimova Nargizaxon Boxadirdjonovna</i>	
Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash modeli	1436
<i>Yunusova Diloramxon Abdumajitovna</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli o'quvchilarning ijtimoiy-muloqot kompetensiyalari	1440
<i>Aripova Nodira Shuxratovna</i>	
Методы развития устной речи детей дошкольного возраста	1444
<i>Исроилова Шохсанам Учкунжон қизи</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarga bo'lgan qiziqishni oshirish metodikalari	1449
<i>Qodirova Buzulayho Turg'unovna, Asqarova Mohidil Murodilla qizi</i>	
Virtual modellash asosida o'quvchilarning arxitekturaviy loyihalash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari.....	1454
<i>Abdullayev A'zamjon Komolxanovich</i>	
Analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda tizimli yondashuvning prinsiplari	1458
<i>Amanova Gulxayo Dilmurod qizi</i>	
O'quvchilarning savodxonlik darajasini aniqlashda xalqaro baholash (PISA) dasturlarining roli.....	1462
<i>Axmedova Mastura Maxmudovna, Abdumalikova Zamira Dilmurod qizi</i>	
O'yin faoliyatida erkinlik va maqsadlilik uyg'unligi: ijodiy tafakkurni rivojlantirish omili sifatida.....	1465
<i>Baxriddinova Yulduz Abror qizi</i>	
Incorporating Culture-Sensitive Communicative Tasks in EFL Courses.....	1468
<i>Guzal Ismailova</i>	
Ingliz tilini o'rganish jarayonida mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil qilish texnologiyasi	1471
<i>Ibragimova Sevara Baxodirovna</i>	
Masofaviy ta'lim jarayonida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish: imkoniyatlar, cheklovlar va istiqbollar	1474
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Ertayoshda ingliz tilini o'yin va TPR metodlari asosida o'rgatish samaradorligi	1478
<i>Kadirova Nilufar Tursinbayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurining individual xususiyatlarini o'rganish	1481
<i>Karayeva Y. X.</i>	
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi.....	1484
<i>Nazarova Mavluda Uktamovna, Botirova Ozoda Baxodir qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda darsni samarali tashkil etishda metoddan foydalanish – ijodiy fikrlashni rivojlantirish	1487
<i>Nazarova Mohigul Akmalovna, Raxmonova Fariza Suxrobovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarining o'rni va ahamiyati	1493
<i>O'rinboeva Lolaxon O'ktamovna, Nazarov Ilhomjon Usmanalievich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (Finlyandiya va Singapur tajribasi asosida).....	1496
<i>Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida integratsiyalashgan darslarni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish.....	1500
<i>Qodirova Dilshoda Abdunabiyevna</i>	
Ingliz tili mashg'ulotlarida yozuv ko'nikmalarini oshirishning metodik asoslari	1504
<i>Qurbonova Barnoxon</i>	
Ta'lim tizimida marketing	1508
<i>T. Seydemetov</i>	
Xorijiy tillarning o'qitilishida boshqa tillarning roli va o'qitish metodikasi.....	1515
<i>Tashxodjayeva Patima Bakiyevna</i>	



Integrating Social and Linguistic Skills in English Teaching Instruction is the Key to Improving Holistic Language Competence	1518
<i>Zaylobidinova Munira Gulomovna</i>	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kimyo ta'limidagi o'rni	1523
<i>Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi</i>	
Pedagogik oliy ta'limda kreativ loyiha va tanlovlar orqali talabalarda mustaqil fikrlash va tashabbuskorlikni rivojlantirish	1530
<i>Baxriddinova Yulduz Abror qizi</i>	
Развитие физических качеств будущих учителей физической культуры с помощью современных технологий	1533
<i>Уринов Облакул Джумаевич</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlash va nutq ravonligini rivojlantirish	1536
<i>Babayeva Xolida Avazmuradovna</i>	
Развитие физических качеств преподавателей физического воспитания с помощью специальных упражнений и современных технологий: научно-практические аспекты	1540
<i>Розилов Нормурод Элмонович</i>	
Развитие массового спорта с помощью технологий и их внедрение в здоровый образ жизни	1543
<i>Давулов Озодбек Каландарович</i>	
Sun'iy intellekt yordamida talabalarga ingliz tilida gapirishni o'rgatish metodikasi	1547
<i>Abdusamadova Ma'rufa Xayrullo qizi</i>	
Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi orqali o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning pedagogik asoslari	1550
<i>Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Murakkab matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	1553
<i>Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi, Alijonova Nazokat Dilmurodjon qizi</i>	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fanining o'rni	1557
<i>Yuldasheva Muxtasarxon Ikromjon qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida "ustoz-shogird" an'anasini tashkil etishning ustuvor vazifalari	1561
<i>Abdullayeva Sabohat G'ayratullayevna</i>	
Maktabgacha ta'limda madaniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish metodikasi	1565
<i>Adolat Xolmatova Muxammadjonovna</i>	
Multimodal Learning as a Pedagogical Framework for Enhancing Professional Competence in Pre-Service Teacher Education	1568
<i>Alimova Dildora Komiljon qizi</i>	
Bolalarda ijtimoiy odobni tarbiyalash xalqaro tajribalar asosida tahlil va taklif	1573
<i>Azimova Ziyoda Ergashevna, Mamirova Maxzunaxon Azamjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida malakaviy amaliyotni samarali tashkil etishni takomillashtirishning ahamiyati	1576
<i>Baqoyev Olim Jtayeovich</i>	
Istiqbolli dorivor o'simliklar ayrim turlarining foydali xususiyatlari hamda ularni dars jarayonida o'qitish metodikasi	1580
<i>Dustmaxmat Tashmatovich Bakiyev, O'ktam Eshtemirovich Xo'janazarov, Nazira Ochilovna Ro'ziyev</i>	
Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar	1588
<i>Doniyorova Dildora Nuritdin qizi</i>	
Oliy ta'limda kompetenyaga asoslangan o'qitish modellari	1591
<i>Ernazarov Alisher Ergashevich, Chinqulova Gulmehro</i>	
Onlayn qimor o'yinlariga tobelikning iqtisodiy soha xodimlari mehnat samaradorligiga ta'siri	1598
<i>Fatidinova Dildora Murodjanovna</i>	
Noverbal aloqa vositalarining psixolingvistik xususiyatlari	1602
<i>Ismailova Oygul Sabirbayevna</i>	
Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari va innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali takomillashtirish yo'llari	1605
<i>Jamolova Gulbanbegim Muzaffar qizi, Meliyev Ma'ruf Qiyomjonovich, Muhammadiyeva Elmera Normurodovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda sahnalashtirish faoliyati orqali muloqotning dolzarb muammolari, imkoniyatlari va yechimlari	1609
<i>Jumaboyeva Marhabo Shokir qizi</i>	

Oliy ta'lim transformatsiyasi sharoitida talabalarning jismoniy faolligi muammosi.....	1614
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i>	
Ingliz tilida kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish.....	1619
<i>Mamaziyojeva Orzixon Odiljon qizi</i>	
Pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda pedagogik mahoratning ahamiyati	1622
<i>Muhamadijeva Nargiza Qudratovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida pedagogik muloqot strategiyalarini rivojlantirish metodikasi....	1626
<i>Murodullayeva Dilsora Ilhom qizi</i>	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha loyiha ishlarini tashkil etish.....	1629
<i>Musayeva Umida Xolmatjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha xizmatlarni tashkil etish texnologiyasi.....	1633
<i>R. R. Zulfiqorov</i>	
Maktabgacha ta'limda dual ta'lim shaklini joriy etishning afzalliklari.....	1639
<i>Razoqova Hosilaoy Anvarovna</i>	
Pedagogik ta'lim sifatini oshirish maqsadida talabalarni faollashtirishning didaktik xususiyatlari	1642
<i>Ruziyev Shuxrat Islamovich</i>	
Oliy ta'lim talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash omillari.....	1647
<i>Sunnatov Zafar Ubaydullayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tanglay kamchiliklariga ega bo'lgan (rinolaliya) bolalarning nafas va motorikasini rivojlantirishning samarali yo'llari	1651
<i>Tadjixodjayeva Feruza Orifovna</i>	
The Role of Circles in Teaching English to Future Primary School Teachers.....	1654
<i>Turdikulova Bonu Otabek qizi</i>	
Tarix ta'limida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari va zamonaviy yondashuvlar.....	1657
<i>Tursunova Sevarxon Umarovna</i>	
Xilvatiy ijodi va uning o'ziga xos xususiyatlari	1661
<i>Usmonova Anora</i>	
Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda xorij amaliyoti	1664
<i>Usmonova Oydin Sherali qizi</i>	
3-4-sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda mnemotexnikadan foydalanish metodikasi.....	1667
<i>Usmonova Odinaxon Sobirovna</i>	
Texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari	1670
<i>Xo'jayorova Munira Samadovna</i>	
O'quvchilarda ixtirochilik qobiliyatlarini kreativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish (texnologiya fani misolida)	1674
<i>Yangiboyeva Qunduzoy Shuxratovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashda ijtimoiy-hissiy rivojlanishining ahamiyati	1678
<i>Yuldasheva Feruza</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga geometrik shakllarni o'rgatish orqali nutqiy kompetentligini rivojlantirish ..	1681
<i>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Qodirova Mubinaxon Zuxriddin qizi</i>	
Ustoz-shogirdlik tizimida yosh o'qituvchining kasbiy malakasini oshirish mezonlari, darajalari	1684
<i>Abdulfattoxova Mavzunabegim Baxtiyorjon qizi</i>	
Периодизация процесса совершенствования воспитательной роли женщины в Центральной Азии	1688
<i>Саидова Барно Нарзуллаевна</i>	
Jinoyat protsessida tergov organi rahbari tushunchasi va uning o'ziga xos jihatlari	1693
<i>Shohruh Xalilov</i>	
Pedagogik faoliyatda kasbiy motivlarni tadqiq qilishning psixologik jihatlari	1698
<i>Amirova Nazokat Uroq qizi</i>	
Raqamli pedagogik muhitda vizual modellashirish asosida Richpeace Cad dasturini o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	1702
<i>Asrorova Saodat Abdullo qiz</i>	
Umumiy ta'lim maktablarida sun'iy intellektni qo'llash.....	1707
<i>Atabaeva Baxitli Jaxanshaevna</i>	



Ijtimoiy transformatsiya jarayonlarida oliy ta'lim muassasalarida profilaktik muhitni shakllantirishning pedagogik asoslari	1710
Bayjanov Babil Bahodirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda texnologiya fanining ahamiyati	1715
Bobolov Nuriddin Tojiyevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda raqamli o'yin texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	1718
Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi	
Maktabda steam loyihalari asosida o'quvchilarning ixtirochilik faoliyatini rivojlantirish	1721
G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi, Turdiyeva Barchinoy Bobirovna	
O'smirlik davrida o'ziga nisbatan ishonch hissi shakllanishida o'ziga bo'lgan munosabatning ta'siri	1726
G'aybullayeva Dilnoza Muxammadjon qizi	
Trigonometrik funksiyalarning qo'shish formulalarini isbotiga doir masalalar	1731
H. Tadjimatova	
Mamlakatimizda turizm sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar va islohatlar (1991–2024-yillar)	1734
Hafiza Botirova Ravshan qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'рни va zamonaviy usullari	1737
Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
Ayollar uchun "shisha shift" sindromi: sabablari, oqibatlari va uni yengish strategiyasi	1740
Karimova Maftuna Vohidovna	
5-6 yoshlik bolalarda refleksiv tafakkur rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik-pedagogik omillar	1744
Karshiyeva Shahnoza Turakulovna	
O'zbekiston metodik maktabida sotsiologiyaviy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili	1747
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ertaklar orqali ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish metodikasi	1752
Madaminova Sarvigul Anvarxo'ja qizi, Qurbonova Baxtixon	
Integratsiyalashgan ona tili fanining muammo va yechimlari	1755
Mamarajabova Ozoda Zokir qizi	
Maxmudxo'ja Behbudiy asarlarida ma'rifiy qadriyatlarning yoritilishi	1758
Qarshiyeva Iroda Baxtiyarovna	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellashtirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirish	1763
Quvvatova Mohira Hikmatilayevna	
Bo'lajak pedagoglarda kouching texnologiyasi asosida darslarni tashkil qilish	1766
S. E. Kabulova	
Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning innovatsion yo'nalishlari	1772
Shamuratov Marat Xalmuratovich	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagoglarining korporativ madaniyati xususiyatlari	1776
Sherbo'tayeva Shoxsanam Usmonovna	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha ta'lim tashkilotini strategik boshqarish	1779
Sultonova Shohida Muxtor qizi	
Akademik litseylarda ingliz tilini o'qitishda AI dan foydalanib dars o'tishning afzalliklari	1783
Tajimbetova Gulmira Kenshimbaevna	
Turli yoshdagi sportchilarda uch hatlab sakrash texnikasini o'rgatish samaradorligini oshirish yo'llari	1786
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
Maktabgacha ta'limda ta'lim tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar	1791
Turdiyev Azamat Gayratovich	
Xalqaro fanlarni implementatsiya qilishning o'quv jarayonidagi texnologiyalari	1794
Yusupova Xabiba Iriskulovna	
Nutqiy (so'zlash) kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari	1797
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Valijonova Durdonaxon Sherzodjon qizi	
Использование игровых технологий в образовательном процессе подготовки старших дошкольников к школьному обучению	1799
Маханова Малика Жумабек кизи	
Организация дошкольного образования в условиях цифровизации общества в ДОО	1803
Умурзакова Умида Наримановна	

Формирование механизмов нравственного воспитания детей дошкольного возраста на основе национальных традиций и ценностей	1807
Хуррамова Гузал Равшановна	
Globalashuv sharoitida yoshlarda milliy g'urur va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari	1810
Norov Nodir Jo'rayevich	
Enigmatik matnlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi	1814
Ibroximova Xilola To'xtasinjon qizi	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1818
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ta'limda innovatsion jarayonlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining ahamiyati	1823
Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna	
Bolalarning tarbiyasiga zamonaviy multfilmlar ta'siri	1826
Choriyeva Surayyo Choriyevna, To'xtayeva Muslima Allayor qizi	
Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash hamda baynalminalchilik tizimini takomillashtirish	1829
Nasiba Djumaniyozova Bekmamatovna	
Pedagogning kasbiy rivojlanish jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni	1833
Keldiyorov Manzura G'aybullayevna, Raxmatova Gulruh Hamroyevna	
Boshlang'ich sinf darsligida qo'llangan xalq og'zaki ijodi namunalari tadqiqiga doir	1836
D. Teshaboyev, Z. Boymatova	



TARIX TA'LIMIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Tursunova Sevarxon Umarovna

Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix ta'limi jarayonida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari chuqur tahlil qilinadi. Tarix fanini o'qitishda ijodiy yondashuvning ahamiyati hamda uning o'quvchi shaxsining har tomonlama kamol topishidagi o'rni yoritiladi. Zamonaviy ta'lim paradigmalari – kognitiv konstruktivizm, neyropedagogika va "o'sish tafakkuri" konsepsiyalari ijodiy tafakkurni shakllantirish metodikalarini ishlab chiqishda nazariy asos sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va ta'lim muhitini loyihalash bo'yicha amaliy tavsiyalar ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so'zlar: ijodiy tafakkur, tarix ta'limi, psixologik-pedagogik asoslar, zamonaviy yondashuvlar, kognitiv konstruktivizm, interfaol metodlar, tanqidiy tafakkur, empatiya, 7–8-sinflar.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the psychological and pedagogical foundations for developing students' creative thinking in the process of history education. It highlights the importance of a creative approach in teaching history and its role in fostering the comprehensive development of students' personalities. Modern educational paradigms – particularly cognitive constructivism, neuropedagogy and the growth mindset concept – are examined as a theoretical basis for designing methodologies aimed at cultivating creative thinking. The article presents scientifically grounded practical recommendations on creating an effective educational environment, as well as applying interactive methods and innovative pedagogical technologies to enhance creative thinking.

Key words: creative thinking, history education, psychological-pedagogical foundations, modern approaches, cognitive constructivism, interactive methods, critical thinking, empathy, Grades 7–8.

Аннотация: В данной статье представлен глубокий анализ психолого-педагогических основ развития творческого мышления учащихся в процессе обучения истории. Раскрывается значимость творческого подхода в преподавании истории и его роль во всестороннем развитии личности обучающихся. Современные образовательные парадигмы – когнитивный конструктивизм, нейропедагогика и концепция "мышления роста" – рассматриваются как теоретическая база для разработки методик формирования творческого мышления. В статье изложены научно обоснованные практические рекомендации по проектированию образовательной среды, а также по применению интерактивных методов и инновационных педагогических технологий, направленных на развитие творческого мышления.

Ключевые слова: творческое мышление, историческое образование, психолого-педагогические основы, современные подходы, когнитивный конструктивизм, интерактивные методы, критическое мышление, эмпатия, 7–8 классы.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning shiddatli rivojlanishi, axborot texnologiyalarining jadallashuvi ta'lim tizimi oldiga tubdan yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bugungi kun o'quvchisi nafaqat bilimlar yig'indisini egallashi, balki ushbu bilimlarni tahlil qilish, sintezlash, baholash va shu asosda yangi g'oyalar hamda yechimlar yaratish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Ayniqsa, tarix fani shaxsni tarbiyalash, uning dunyoqarashini kengaytirish, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, an'anaviy tarix ta'limi ko'pincha faktlarni yodlashga, xronologik ketma-ketlikni eslab qolishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga yetarli e'tibor bermaydi. Natijada, o'quvchilar tarixiy jarayonlarni chuqur tahlil qila olmaydilar, o'tmishdan saboq chiqarishda va zamonaviy muammolarga ijodiy yechim topishda qiynaladilar [1, b. 12–15]. Ushbu maqolaning maqsadi – tarix ta'limida, xususan, 7–8-sinflar misolida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslarini ilmiy tahlil qilish hamda zamonaviy yondashuv

va metodikalarni taklif etishdan iborat. Maqolada ijodiy tafakkurning mohiyati, uni shakllantirish mexanizmlari, shuningdek, tarix darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali pedagogik strategiyalar ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijodiy tafakkur tushunchasi psixologiya va pedagogikada uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan murakkab hodisadir.

J. Gilford, E. P. Torrens, A. Maslou, R. J. Sternberg kabi psixologlar ijodiy tafakkurning nazariy asoslarini, uning turlarini va rivojlantirish yo'llarini o'rganishga katta hissa qo'shganlar [2].

J. Gilford ijodiy tafakkurni divergent tafakkur sifatida ta'riflab, uning tezlik, egiluvchanlik, originallik va aniqlik kabi komponentlarini ajratgan [3, b. 25–27].

E. P. Torrens esa ijodiy tafakkurni “muammoni sezish, g'oyalarni yaratish, gipotezalarini shakllantirish va ularni tekshirish jarayoni” deb hisoblagan [4, b. 3–5].

Pedagogik jihatdan ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalasi V. A. Suxomlinskiy, Sh. A. Amonashvili, I. Y. Lerner, M. N. Skatkin kabi pedagog-olimlar tomonidan ham chuqur o'rganilgan. Ular ta'lim jarayonida o'quvchilarni faol fikrlashga undash, muammoli vaziyatlar yaratish va mustaqil izlanishga yo'naltirish ijodiy shaxsni shakllantirishning muhim sharti ekanligini ta'kidlaganlar [5].

Tarix ta'limida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar ham mavjud bo'lib, ularda asosan interfaol metodlar, loyihaviy ishlar va tanqidiy tafakkurni shakllantirish masalalariga e'tibor qaratilgan [6]. Biroq, 7–8-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ijodiy tafakkurning psixologik-pedagogik asoslarini kompleks yoritish, zamonaviy neyro-kognitiv yondashuvlarni integratsiyalash va aniq metodik tavsiyalarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar yetarli emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tarix ta'limida ijodiy tafakkurni rivojlantirish jarayonini o'rganishda qo'llanilgan ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish usullariga asoslanadi. Ma'lumotlar avvalo ilmiy-pedagogik manbalar, psixologiya va didaktikaga oid fundamental tadqiqotlar, shuningdek J. Piaget, L. S. Vigotskiy, K. Dwek, R. Sternberg hamda E. Torrensning nazariy ishlanmalarini tahlil qilish orqali yig'ildi. Amaliy bosqichda 7–8-sinf o'quvchilari ishtirokida kuzatish, suhbat, pedagogik diagnostika va ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonini baholash usullaridan foydalanildi. O'qituvchilarning interfaol metodlardan foydalanish darajasini aniqlash maqsadida strukturalashtirilgan so'rovnomma va yarim strukturalashtirilgan intervyu o'tkazildi. Olingan ma'lumotlar sifat tahlili, kontent tahlili hamda taqqoslash usullari orqali qayta ishlanib, eksperimental va nazorat guruhlarini ko'rsatkichlari statistik jihatdan solishtirildi. Shuningdek, o'quvchilarning ijodiy tafakkur darajasidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun divergent fikrlash elementlarini o'lchovchi baholash mezonlari qo'llanildi. Olingan natijalar integrativ tahlil asosida umumlashtirilib, metodik xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning empirik va nazariy tahlillari shuni ko'rsatadiki, tarix ta'limi jarayonida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini muvaffaqiyatli rivojlantirish bir qator fundamental psixologik-pedagogik tamoyillarga asoslanadi. Bu tamoyillar o'quvchini passiv obyektidan faol subyektga aylantirishga, uning ichki motivatsiyasini kuchaytirishga va kognitiv salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Mazkur jarayon zamonaviy ta'lim paradigmatlari, xususan, kognitiv konstruktivizm, “o'sish tafakkuri” nazariyasi va neyropedagogika yondashuvlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Jumladan, shveytsariyalik psixolog J. Piagetning kognitiv konstruktivizm nazariyasiga muvofiq, o'quvchi bilimni tayyor holda qabul qiluvchi idish emas, balki o'zining faol aqliy faoliyati orqali uni mustaqil ravishda “quruvchi” subyektdir [7, b. 19–21]. Tadqiqot doirasida nafaqat J. Piagetning kognitiv konstruktivizmi, balki L. S. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy yondashuvi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Vigotskiyning fikricha, o'quvchining intellektual rivojlanishi shunchaki individual “kashfiyotlar” orqali emas, balki ijtimoiy muloqot, ya'ni o'qituvchi va tengdoshlari bilan hamkorlik jarayonida yuzaga keladi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga ko'ra, o'quvchi mustaqil bajara olmaydigan, lekin o'qituvchi yoki bilimlroq tengdoshi yordamida uddalay oladigan vazifalar mavjud. Tarix darslarida bu tamoyilni qo'llash orqali ijodiy tafakkurni samarali rag'batlantirish mumkin. Masalan, murakkab tarixiy manba tahlilini dastlab o'qituvchi boshchiligidagi guruhda muhokama qilish, asosiy g'oyalarni birgalikda aniqlash va shundan so'ng o'quvchilarga mustaqil ravishda boshqa bir manbani shu usulda tahlil qilishni topshirish ushbu prinsipning amaldagi ko'rinishidir. Guruhlarda ishlash, debat va loyiha ishlarida o'quvchilar bir-birining fikrini to'ldiradi, yangi g'oyalarni birgalikda yaratadi, bu esa individual ijodkorlikni ham kuchaytiradi [13].



Shu bilan birga, K. Duekning tadqiqotlari o'quvchilarning o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchi ularning muammolarga ijodiy yondashish motivatsiyasiga bevosita ta'sir qilishini isbotlaydi [8, b. 31–34]. Zamonaviy neyrofan esa ijodiy faoliyat miya neyronlari o'rtasida yangi bog'lanishlarni hosil qilib, kognitiv qobiliyatlarni oshirishini tasdiqlaydi [9]. Aynan shu nazariy asoslar tarix darslarida ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodikalarni ishlab chiqish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, tarix ta'limi shunchaki fakt va sanalarni yodlash jarayoni emas, balki o'tmishni tahlil qilish, sabab–oqibat bog'lanishlarini anglash hamda tarixiy voqelikka tanqidiy va ijodiy yondashish orqali o'quvchi tafakkurini boyitishga xizmat qiladigan fundamental poydevordir. Aynan shu nuqtai nazardan, o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish zamonaviy tarix pedagogikasining dolzarb vazifasi sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Buning uchun an'anaviy ta'lim metodlaridan voz kechib, o'quvchi shaxsini markazga qo'yadigan, uning kognitiv faolligini rag'batlantiradigan innovatsion yondashuvlarni amaliyotga keng tatbiq etish zarur.

Ijodiy tafakkurni tanqidiy tafakkurdan ajratgan holda tasavvur etish qiyin. Ijodkorlik – bu shunchaki yangi g'oyalarni yaratish bo'lsa, tanqidiy fikrlash – bu g'oyalarni mantiqan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish hamda eng maqbul variantni tanlash qobiliyatidir [14]. Tarix ta'limida bu ikki tafakkur turi bir-birini to'ldiradi. Masalan, “Tarixiy shaxs sudi” metodini olaylik. O'quvchilar biror tarixiy shaxsning (masalan, Nodirabegim yoki Chor Rossiyasi generali) faoliyatini o'rganar ekan, ijodiy yondashib, o'sha davr sharoitidan kelib chiqib uning xatti-harakatlarini oqlash yoki qoralash uchun dalillar to'playdilar (“prokuror” va “advokat” rollari). Bu – ijodiy jarayon. Shundan so'ng ular o'z dalillarini taqdim etib, raqib tomonning dalillarini tanqidiy tahlil qiladilar, ularning ishonchliligini shubha ostiga oladilar. Bu – tanqidiy fikrlash jarayoni. Shunday qilib, o'quvchi tarixiy voqelikni biryozlamlama emas, balki ziddiyatli va ko'p qirrali ekanligini anglab, o'zining asoslangan xulosasini shakllantiradi.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda o'rta bo'g'in, xususan 7–8-sinf o'quvchilarining psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda “Aqliy hujum”, “Keys-stadi”, “Rollik o'yinlar” va “Debat” kabi interfaol metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikni namoyon etadi. Masalan, “Rollik o'yinlar” metodologiyasi doirasida o'quvchilarning Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi singari murakkab tarixiy shaxslar obraziga kirishi va ularning qarorlarini tarixiy kontekstdan kelib chiqib asoslashi talab etiladi. Bu jarayon nafaqat o'quvchida tarixiy empatiya (o'zganing holatini his eta olish) tuyg'usini shakllantiradi, balki ijodiy va tanqidiy tafakkurning samarali sintezini ta'minlaydi [10, b. 88–90].

Bundan tashqari, o'quvchilarni “Mening ajdodlarim shajarasi”, “Tarixiy obida pasporti”, “Tarixiy voqea rekonstruksiya” kabi kichik hajmdagi ilmiy–ijodiy loyihalarga jalb qilish ularda mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmalarini, xususan axborotni maqsadli to'plash, tizimlashtirish, tahlil qilish va uni nostandart shaklda taqdim etish qobiliyatini shakllantiradi. Mazkur faoliyat o'quvchini tayyor bilim iste'molchisidan muammoni mustaqil hal qiluvchi, evristik yechimlarni topishga qodir subyektkga aylantiradi.

Ta'lim samaradorligini oshirishda “Flipped Classroom” (teskari sinf) modeli ham muhim o'rin tutadi. Ushbu innovatsion model nazariy materialni o'quvchi tomonidan mustaqil (uyda) o'zlashtirishini ko'zda tutadi. Natijada dars jarayonida ajratilgan qimmatli vaqt bevosita munozaralar, keyslarni tahlil qilish, guruhlarda loyihalar ustida ishlash kabi ijodiy–amaliy faoliyatga yo'naltiriladi. Bu yondashuv o'quvchilarning ijodiy salohiyatini maksimal darajada yuzaga chiqarish uchun qulay shart–sharoit yaratadi [11].

Albatta, bu jarayonda o'qituvchining roli tubdan o'zgaradi. U avtoritar axborot manbayi maqomidan voz kechib, o'quvchining fikrlash jarayoniga turtki beruvchi, ochiq va yo'naltiruvchi savollar orqali ularni mustaqil izlanishga undovchi “fasilitator” vazifasini bajaradi.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirishning yuqori bosqichi – bu metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishdir. Metakognitsiya – bu o'z fikrlash jarayonini anglash, uni boshqarish va baholash qobiliyatidir [15]. Tarix darsida o'qituvchi–fasilitator o'quvchilarni nafaqat “nima o'ylashga”, balki “qanday o'ylashga” ham o'rgatishi kerak. Buning uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. “Ushbu xulosaga qanday keldingiz? Qaysi dalillar sizga ko'proq ta'sir qildi?”
2. “Bu muammoni yechish uchun yana qanday boshqacha yo'l tutish mumkin edi?”
3. “Manbani o'rganayotganda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz va ularni qanday yengdingiz?”
4. “Agar sizga qarama-qarshi fikr aytilsa, o'z nuqtai nazaringizni himoya qilish uchun qanday tayyorgarlik ko'rasiz?”

Bunday savollar o'quvchini o'z fikrlash strategiyalarini tahlil qilishga, kamchiliklarini anglashga va kelgusida yanada samaraliroq yondashuvlarni topishga undaydi. Bu esa o'quvchining ijodiy salohiyatini mustaqil ravishda rivojlantirib borishiga zamin yaratadi.

Bunday pedagog o'quvchilarning o'z g'oyalarini erkin ifodalashiga imkon yaratadi, xatolarga bilish jarayonining tabiiy bir qismi sifatida tolerant yondashadi va har qanday ijodiy izlanishni faol rag'batlantiradi. Shu-

ningdek, raqamli asr o'quvchisi uchun axborotni vizual qabul qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, murakkab tarixiy ma'lumotlarni infografika, aql xaritalari, diagrammalar va tematik videolar kabi vizual vositalar orqali taqdim etish hamda o'quvchilarni ularni mustaqil yaratishga jalb qilish ularning ijodiy tafakkurini, axborotni tizimlashtirish va original tarzda taqdim etish malakasini sezilarli darajada oshiradi ^[12].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, o'tkazilgan nazariy-amaliy tadqiqotlar tarix ta'limida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish shunchaki an'anaviy metodlarni zamonaviylari bilan almashtirish emas, balki ta'lim paradigmasini o'quvchi shaxsining kognitiv faolligini rag'batlantirishga yo'naltirishni talab etadigan kompleks jarayon ekanligini ko'rsatdi. O'tkazilgan pedagogik tajriba–sinov ishlari natijalarining empirik tahlili shuni isbotladiki, kognitiv konstruktivizm, “o'sish tafakkuri” nazariyasi va neyropedagogika tamoyillariga asoslangan interfaol metodlar (“Keys-stadi”, “Rollik o'yinlar”), loyihaga asoslangan ta'lim va “Teskari sinf” modelini qo'llash nazorat guruhiga nisbatan eksperimental guruhdagi o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'rsatkichlarini statistik ahamiyatli darajada oshirgan.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tarix fani o'qituvchilari uchun ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi interfaol metodlar bo'yicha maqsadli malaka oshirish kurslarini tashkil etish, 7–8-sinflar uchun mo'ljallangan darsliklarni muammoli vaziyatlar va ijodiy loyiha topshiriqlari bilan boyitish, shuningdek tarixiy voqealarni modellashtiruvchi interaktiv raqamli ta'lim resurslarini yaratish kabi amaliy takliflar ilgari suriladi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ilmiy istiqboli sifatida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda metodikani differensiallashtirish, ijodiy tafakkurning o'quvchilarning boshqa kompetensiyalariga ta'sirini uzoq muddatli tadqiqotlar orqali baholash hamda sun'iy intellektga asoslangan adaptiv ta'lim platformalarini yaratish imkoniyatlarini o'rganish kabi yo'nalishlarni belgilash mumkin. Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi va kelgusi tadqiqotlarning olib borilishi O'zbekistonda tarix ta'limi sifatini oshirishga, shuningdek raqobatbardosh, ijodkor va mustaqil fikrlovchi avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
2. Sternberg, R. J. The Nature of Creativity. Creativity Research Journal, 2006, 18(1), 87–98.
3. Guilford, J. P. The Nature of Human Intelligence. McGraw-Hill, 1967.
4. Torrance, E. P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms–Technical Manual. Scholastic Testing Service, 1974.
5. Амонашвили Ш. А. Размышления о гуманной педагогике. – Москва: Издательский дом Шалвы Амонашвили, 1996. – 496 с.
6. История и обществознание в школе. – 2019. – № 5. (Tarix ta'limida interfaol metodlarni qo'llashga bag'ishlangan maqolalar to'plami).
7. Piaget, J. Genetic Epistemology. Columbia University Press, 1970.
8. Dweck, C. S. Mindset: The New Psychology of Success. Random House, 2006.
9. Doidge, N. The Brain That Changes Itself: Stories of Brain Plasticity from the Frontiers of Brain Science. Viking, 2007.
10. Сафарова Р. Г. Педагогические технологии в обучении истории // Таълим менежменти. – 2021. – № 2. – Б. 88–92.
11. Bergmann, J., & Sams, A. Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. International Society for Technology in Education, 2012.
12. Shah, P., Mayer, R. E., & Moreno, R. The Role of Visualization in Learning. In The Cambridge Handbook of Multimedia Learning, 2018, pp. 516–531. Cambridge University Press.
13. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
14. Paul, R., & Elder, L. The Miniature Guide to Critical Thinking: Concepts and Tools. Foundation for Critical Thinking, 2006.
15. Flavell, J. H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry. American Psychologist, 1979, 34(10), 906–911.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.